

**MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING “HUSN VA DIL” DOSTONIDA
BADIY OBRAZLARING RAMZIY TALQINI VA ULAR ORQALI
KOMILLIKA INTILISH**

Gulasal ERGASHEVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878472>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostonidagi obrazlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ular orqali insonlarning ichki kechinmalari, komillikka intilish g‘oyalari ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammadniyoz Nishotiy, “Husn va Dil” asari, badiiy obraz, talqin, ramziy talqin, komillik, obi hayot, gavhari-donish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности художественных образов в поэме Мухаммаднийёза Нишотия «Хусн ва Дил», а также раскрываются внутренние переживания людей и идеи стремления к совершенству, воплощённые через эти образы.*

Ключевые слова: *Мухаммаднийёз Нишотий, произведение «Хусн ва Дил», художественный образ, интерпретация, символическое толкование, совершенство, вода жизни, жемчужина знаний.*

Annotation: *This article explores the unique characteristics of the artistic images in Muhammadniyoz Nishotiy’s poem “Husn va Dil”, highlighting the inner experiences of individuals and the ideas of striving for perfection expressed through these images.*

Keywords: *Muhammadniyoz Nishotiy, “Husn va Dil”, artistic image, interpretation, symbolic interpretation, perfection, water of life, pearl of knowledge.*

Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostonidagi syujetlar sharq adabiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Bu syujet ko‘p shoirlar ijodida turlicha jilovlanib kelgan.

“Husn va Dil”dostoni hajm jihatidan 15584 misra va 62 bobdan tashkil topgan asardir. Bu asar katta ijodiy mehnatning samarasi hisoblanadi:

Baytki taxminan erur yetti yuz,

Yetti ming to‘qson ikki bo‘ldi tuz.

der ekan u dostonning yozilish tarixini ham ko‘rsatib o‘tadi:

Muddati tarixini etsam bayon,

Xatmi Dil va Husn dur, ey nuqtadon.

deydi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki doston 1192-hijriy va 1771-milodiy yilda yozilganligi aniq ma'lum bo'ladi. Asar an'anaviy kirish (I-V boblar) dan so'ng shoir o'zi haqida, dostonning yozilish sabablari haqida hamda so'z va uning qudrati haqida, xamsanavislar (Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar) haqida fikr yuritgan. Asarning asosiy qismi XI bobdan boshlanadi va asar xotima bilan yakunlanadi.

Xususiyatlar orqali real hayotdagi turli xil vakillariga ishora qilinadi. Nishotiy har bir obraz ustida mukammal ishlagan shaxsdir. Obrazlarning xarakter xususiyatlarini, timsoliy ko'rinishlarini jonli ifoda etadi. Har bir obraz o'zining axloqiy-ta'limiy g'oyasiga, mazmuniga ega.

“Husn-u Dil”ning o'quvchini rom etadigan fazilatlaridan biri obrazlaridir. Ana shu obrazlilik asarni o'qiyotgan har biri insonni o'ziga jalb qiladi. Shoir timsollarni qunt bilan mehr bilan ishlov berib, maqsad yo'lida mantiqli ishlata bilgan. Dostonda 100 dan ortiq obraz tasvirlangan. Ulardan ba'zilar Nazar, Aql, Ishq, Vafo, Mehr, Nomus, Hikmat, Sabr, Raqib obrazlari orqali esa turli fe'l-atvorga, odob-axloqqa ega bo'lgan kishilardagi o'ziga xos xususiyatlar orqali real hayotdagi turli toifa vakillariga ishora qilib keladi.

Himmatshoh obrazi ikki xil ma'noni: ham oshiqning bir sifatini, ham solikka yo'l ko'rsatuvchi pir ma'nosini anglatadi.

Himmat – Nazarning tariqat yo'lidagi birinchi piri, ammo u obi hayotning oldiga qadar olib borib qo'yolmaydi. Lekin obi hayotni qo'lga kiritishga yordam beruvchi odam va buloqqacha bo'lgan yo'lni aytishi mumkin. Himmat Nazarga yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan sinovlardan – Sagsor qal'asi va Raqib devdan xabar beradi.

Raqib dev – nafs ramzi. Himmat Nazarning devdan oson qutilishi uchun gavhari donish beradi (Suhaylo Farhodga samandar yog'ini bergani kabi). Uni og'ziga solsa, hech kim uni ko'rolmasligini va Raqib dev sitamlaridan omonlik topishini aytadi. Gavhari donish – ogohlik gavhari, degan Ramziy ma'noni anglatib kelgan.

Dostonda Fuod(Dil) obrazi ishqqa muhtalo oshiq. Ammo bu ishq haqiqiy bo'lmay, Ollohga bo'lgan ishqdir. Asardagi “Husn” obrazi ham har tomonlama Dilga munosib yor, ahdiga vafoli. Asarda vaslga yetishish uchun mehnat, mashaqqat chekish g'oyasi ilgari suriladi. Navoiy asarlarida bo'lgani kabi, Nishotiy ham qiyinchilik, zahmat chekmay, yorning visoliga, ya'ni Olloh vasliga yetib bo'lmasligini asardagi majoziy timsollar orqali yoritib beradi. Dostonda Aqlshoh va Ishqshoh o'rtasidagi jang Ishqning g'alabasi bilan yakun topishi ham aql bor joyda ishq to'liq o'zligini nomoyon qila olmasligiga ishoradir. Asarni tasavvufiy tomondan o'rganish mazmunni to'laroq anglashga yordam beradi. Dil nazari dunyoviy hislardan tozalanib, yo'lida adashmay, dunyo noz-ne'matlaridan vos kecha olgani, sinovlarga

sabr qilishi sabab obi hayot-hayot suviga yetishgani uning komillikka yetishkanidan dalolatdir.

Asarda keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Nishotiy o'zidan avval yashagan to'rt shoir: Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy xamsasini o'qib, undagi rivoyat-u hikoyatlardan ta'sirlangani, “Husn va Dil” dostonini ushbu shoirlar xamsasining birinchi dostoniga javob tariqasida yozganini ta'kidlaydi:

To'rt kitob andaki mazkur erur, Xamsalig' oti bila mashhur erur. Har birining avvalida bir kitob -Bor edikim, andin edi fathi bob. Birining oti: “Maxzani asrori shavq”, Ul birisi: “Matlai' anvori shavq”. Yana biri: “Tuhfat ul-ahror” edi, Biri aning: “Hayrat ul-abror” edi. Man dog'I anlarg'a demoklik javob, Istabon ayttim bu so'zi irtikob.

Shoir xamsanavislar ham xomis-besh bo'lmog'I lozim deb hisoblaydi:

To'rtovi chun xamsa qilib irtikob,

Xamsa laqab topti alarg'a kitob.

Deguvchi ham besh bo'lubon qiylu qol.

Nishotiy dostonini yozishda Navoiy xamsasidan ilhomlangan deyish mumkin. Chunki Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni voqealariga o'xshash jihatlar dostonida kuzatiladi. Farhodning yor vasliga erishish yo'lidagi to'siqlar, Nishotiy dostonidagi Fuodning go'zal Husnga yetishish uchun turli qiyinchiliklarni yengib o'tishi kabi holatlar bilan mosdir.

Bundan tashqari Nishotiy birgina “Farhod va Shirin ” dostoniga qiyoslabgina qolmay “Hayrat ul-abror” dostonidagi komil inson bo'lishga yetaklovchi omillarni, inson tarbiyasi bilan bog'liq xususiyatlarni yaqoll ma'lum bir majoziy timsollar orqali yoritib bergan shaxsdir.

Xulosa qilib aytganda Muhammadniyoz Nishotiy o'zining mashhur “Husn va Dil” dostonida insonning ichki kechinmalari sevgi, muhabbat, g'azab, aql, hayo, xayol va ko'pgina xususiyatlarni o'z asarida bejirim obrazlar orqali ko'rsatib, shu xususiyatlarga tegishli kamchilik va nuqsonlarni ham yaqqol ochib bergan. Bundan tashqari tarixiy shaxslar, payg'ambarlar, avliyolar va adabiy qahramonlarning nomlarini keltirishda va ularni obraz sifatida qo'llashda, shuningdek har bir obrazning nomlanishi voqealar rivoji bilan uyg'unlik kasb qilgani shoir mahorati asosida ko'rsatilgan. Shoir makon obrazlari va shaxs obrazlari ifodasida turli til bezaklari, so'z o'yinlari, qo'llagani bundan tashqari, shoirning arab harflari yordamida majoziy iboralar yaratish mahoratiga misollar berilgan va yana aytishimiz

mumkinki bu doston- insonda mavjud barcha fazilatlar va xususiyatlar ma’lum bir obrazlar orqali ulug‘langan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o‘zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O‘qituvchi, 1964.
3. Xolid Rasul. Nishotiy va uning “Husn-u Dil” dostoni//O‘zbek adabiyoti masalalari.-T.:1962, 4-son.
4. Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirik. -T.: G‘,G‘ulom, 1967. 1-18-betlar.
5. Rasulov X. O‘zbek epik she’riyatida xalqchilik.-T.:1973. 29-56-betlar.
6. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975.
7. O‘zbek adabiyoti. III tom.-T, 1959. 444 – 467-betlar.
8. Nishotiy.Husn va Dil.Lirika.-T.1967.
9. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
10. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta’siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
11. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
12. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
13. 13.Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.